

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 5 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 7, НОМЕР 5

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 7, ISSUE 5



СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№5 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2024-5>

Бош муҳаррир:
Тўхтасинов Илҳом
п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

Главный редактор:
Тухтасинов Илхом
д.п.н., профессор (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:

Editor in Chief:
Tuhtasinov Ilhom
DSc. Professor (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

Назаров Бахтиёр
академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умарўғли
ф.ф.д., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким
ф.ф.д., профессор (Татаристон)

Махмудов Низомиддин
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил
ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматкул
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммамед
к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Жеймс Форт
Мичиган университети (АҚШ)

Умархўжаев Мухтор
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабоев Ҳамидулла
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддиқова Ирода
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар
ф.ф.д. (Грузия)

Туробов Бекпулат
масбул котиб, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Назаров Бахтиёр
академик. (Узбекистан)

Якуб Умар оглы
д.ф.н., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бакиева Гуландом
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Миннуллин Ким
д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Керимов Исмаил
д.ф.н., профессор (Россия)

Джураев Маматкул
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Куренов Рахыммамед
к.ф.н. (Туркменистан)

Кристофер Жеймс Форт
Университет Мичигана (США)

Умархаджаев Мухтар
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Мирзаев Ибодулло
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Балтабоев Ҳамидулла
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Дустмухаммедов Хуршид
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Лиходзиевский А.С.
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Сиддиқова Ирода
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Шиукашвили Тамар
д.ф.н. (Грузия)

Туробов Бекпулат
отв. секретарь, PhD, доцент
(Узбекистан)

EDITORIAL BOARD

Bakhtiyor Nazarov
academician. (Uzbekistan)

Yakub Umarogli
Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova
Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim
Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail
Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhimmamed
Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort
University of Michigan (USA)

Umarkhodjaev Mukhtar
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibodulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammedov Khurshid
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shiukashvili Tamar
Doc. of philol. scien. (Georgia)

Turobov Bekpulat
PhD Ass. prof. Senior Secretary
(Uzbekistan)

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

1. Urazaliyeva Mavluda Yangiboyevna O‘ZBEK TILI AUDIOKORPUSI UCHUN PRAATNING FUNKSIONAL IMKONIYATLARI.....	5
2. Kuchkorov Khoshimjon Khasanzoda SOME CONSIDERATIONS ON THE UZBEK TRANSLATION OF THE WORK OF THE ALCHEMIST (ON THE EXAMPLE OF THE TRANSLATION OF AKHMAD OTABOY).....	11
3. Ergashev Mirsaid Baxtiyor o‘g‘li SEMANTIC FEATURES OF THE CONCEPT OF “LOVE-MUHABBAT” IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES.....	18
4. Eshboltayev Bobur Jo‘rayevich BOLALAR REKLAMA MATNLARINING PSIXOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI.....	23
5. Qurbonova E‘zoza HUQUQSHUNOSLIKKA DOIR TERMINLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI VA ULARDA POLIFUNKSIONALLIK MASALASI.....	27
6. Abduxamidova Dilafruz Abduxabirovna TILNING TAFAKKURGA TAFAKKURNING TILGA TA‘SIRI.....	33
7. Usmonova Zarina Habibovna THE UNIQUE ASPECTS OF TRANSLATION IN ENGLISH SCIENCE FICTION.....	38
8. Valieva Noiba Abbasxonovna TIL VA JAMIYAT O‘RTASIDAGI UZVIY BOG‘LIQLIK XX ASR DOLZARB MASALASI SIFATIDA.....	43
9. Dilorom Ikramovna Hakimova “NAFS” KONSEPTINING LINGVOPRAGMATIK TAVSIFI VA TASNIFI.....	49
10. Xasanova Shaxzoda FE‘L FRAZEOLOGIZMLAR TARJIMASI.....	54
11. Ойбек Бектемирович Абдимўминов БМТ ИСЛОХОТЛАРИ: СИЁСИЙ ҚАРАШЛАР, НАЗАРИЙ ЁНДАШУВЛАР ВА АМАЛИЙ ТАШАББУСЛАР.....	60
12. Хасанова Феруза Мирзабековна, Аҳмедов Нодирбек Алиевич ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕВОДА С КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА.....	67
13. Усманова Салиха Юлдашевна, Мирзаева Шахло Ризаевна ДИФФЕРЕНЦИАЦИЯ СОСТАВА И СТРОЕНИЯ РУССКОГО И УЗБЕКСКОГО СЛОВА ПРИ ИЗУЧЕНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА СТУДЕНТАМИ НАЦИОНАЛЬНЫХ ГРУПП.....	74
14. Saidvaliyev Farrukh Saidakramovich, Subkhanova Aziza Khabibulla kizi ROLE OF ANTIDEPRESSANTS IN REDUCING THE FREQUENCY AND DURATION OF MIGRAIN HEADACHES.....	80
15. Ишанкулова Нилуфар Ташкентовна HEMIS TILI ФЕЪЛЛАРИНИНГ АКЦИОНАЛ ТАСНИФИ.....	85
16. Jabborova Dilafruz Ismatullo kizi USING DIGITAL TECHNOLOGIES TO ENHANCE FINANCE STUDENTS’ WRITING COMPETENCE.....	91
17. Jo‘raqulova Mushtariy O‘ZBEK TILI PARALLEL KORPUSINING LINGVISTIK TA‘MINOTI.....	94
18. Maftuna Kamarova Umar qizi KOREYS TILI O‘QITUVCHILARINING O‘QISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA FLIPPED LEARNING TEXNOLOGIYASINING O‘RNI.....	99

19. Shoxida Ulugova Shoxruxovna LISONIY OBRAZ YARATISHDA DISKURSNING KOGNITIV-SEMANTIK VAZIFASI.....	104
20. Рашидова Камила Ахмаджонова ЗАРОЖДЕНИЕ СОВРЕМЕННОЙ ДЕТСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ ЯПОНИИ.....	109
21. Тошбекова Дилором Исмоиловна, Халимова Нодира Бахронкуловна РУССКАЯ ФРАЗЕОЛОГИЯ И КУЛЬТУРНЫЙ КОНТЕКСТ: АНАЛИЗ УСТОЙЧИВЫХ ВЫРАЖЕНИЙ, ПОСЛОВИЦ И ПОГОВОРК, ИХ ПРОИСХОЖДЕНИЕ, РАЗВИТИЕ И РОЛЬ В СОВРЕМЕННОЙ КОММУНИКАЦИИ.....	116
22. Bakhronova Dilrabo Keldiyorovna, Umirova Dilnoza PRAGMATIC FEATURES OF PHRASES IN IAN MCEWAN’S NOVELS.....	120
23. Ikramova Kamola Shuhratovna THE IMPORTANCE OF MYTHOLOGIES, ARCHETYPES, AND MYTHIC UNITS IN THE CREATION OF A FEMALE IMAGE IN NOVELS “PRIDE AND PREJUDICE” BY JANE AUSTEN AND “O’TGAN KUNLAR” BY ABDULLAH QODIRIY.....	124
24. Buranova Madina Uktamovna, Ruziyeva Umida Abruykul kizi SEMANTIC AND PRAGMATIC ANALYSIS OF ANTHROPOCENTRIC IDIOMS IN CONTEMPORARY ENGLISH LITERATURE.....	129
25. Ergashova Baxora Sayfillo qizi ITALYAN XALQ ERTAKLARINING TARIXIY TARAQQIYOTI.....	136
26. Muhtarova Nigina THE USE OF AUTHENTIC VIDEO MATERIALS TO IMPROVE LANGUAGE LEARNING THROUGH COMMUNICATIVE TEACHING.....	141
27. Bayonkhanova Iroda Furkatovna KOREYS TILINI O’RGANISHDA MAQOLLARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI.....	151
28. Ergashev Mirsaid Baxtiyor o’g’li SEMANTIC FEATURES OF THE CONCEPT OF “LOVE-MUHABBAT” IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES.....	157
29. Рашидова Камила Ахмаджонова ЗАРОЖДЕНИЕ СОВРЕМЕННОЙ ДЕТСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ ЯПОНИИ.....	162
30. Ikromova Nigina Oybekovna THE EFFECT OF COGNITIVE LOAD ON THE TRANSLATOR: THE ROLE OF PSYCHOLINGUISTIC PROCESSES IN TEXT TRANSLATION.....	169
31. Эргашева Дилноза Тохировна АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА.....	175
32. Nasiba Azizova THE CONCEPT OF LINGUISTIC PERSONALITY IN THE WORKS OF ALISHER NAVOI.....	180



ISSN: 2181-9297


www.tadqiqot.uz

Maftuna Kamarova Umar qizi

SamDChTI tayanch doktoranti

Koreys filologiyasi kafedrasida assistent o'qituvchisi

KOREYS TILI O'QITUVCHILARINING O'QISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA FLIPPED LEARNING TEXNOLOGIYASINING O'RNI

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.15078389>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bo'lajak koreys tili o'qituvchilarining o'qish kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida Flipped learning (teskari ta'lim) texnologiyasidan foydalanishning samaradorligi o'rganilgan. Flipped learning texnologiyasi talabalarning mustaqil va interfaol ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, auditoriya mashg'ulotlarini samarali tashkil etishga imkon beradi. Tadqiqot doirasida innovatsion metodologiyaning didaktik ahamiyati va pedagogik afzalliklari tahlil qilinib, ushbu yondashuv koreys tili o'qituvchilarini tayyorlash tizimida qanchalik muhim ekani ko'rsatib berilgan. Natijalar Flipped learning texnologiyasi yordamida ta'lim sifatini oshirishning amaliy jihatlari ochib beradi.

Kalit so'zlar. Koreys tili o'qituvchilari, o'qish kompetensiyasi, Flipped learning texnologiyasi, interfaol ta'lim, mustaqil o'qish, ta'lim metodologiyasi, innovatsion yondashuv

Мафтуна Камарова умар кизиДокторант Самаркандского государственного
института иностранных языков

Ассистент преподавателя кафедры корейской филологии

РОЛЬ ТЕХНОЛОГИИ FLIPPED LEARNING В РАЗВИТИИ КОМПЕТЕНЦИИ ЧТЕНИЯ У ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ КОРЕЙСКОГО ЯЗЫКА

АННОТАЦИЯ

В данной статье изучена эффективность применения технологии Flipped Learning (перевернутое обучение) в процессе развития компетенции чтения у будущих преподавателей корейского языка. Технология Flipped Learning способствует развитию у студентов навыков самостоятельного и интерактивного обучения, а также позволяет эффективно организовать аудиторные занятия. В рамках исследования проведен анализ дидактической значимости и педагогических преимуществ инновационной методологии, что показало, насколько важен данный подход в системе подготовки преподавателей корейского языка. Результаты раскрывают практические аспекты повышения качества образования с помощью технологии Flipped Learning.

Ключевые слова. Преподаватели корейского языка, компетенция чтения, технология Flipped Learning, интерактивное обучение, самостоятельное чтение, методология обучения, инновационный подход.

Maftuna Kamarova Umar qiziDoctoral Candidate, Samarkand State Institute of Foreign Languages
Assistant Lecturer, Department of Korean Philology**THE ROLE OF FLIPPED LEARNING TECHNOLOGY IN DEVELOPING READING
COMPETENCY OF KOREAN LANGUAGE TEACHERS****ANNOTATION**

This article explores the effectiveness of using flipped learning technology in developing reading competence among prospective Korean language teachers. Flipped learning technology enhances students' independent and interactive learning skills while enabling the efficient organization of classroom activities. Within the framework of the study, the didactic significance and pedagogical advantages of this innovative methodology are analyzed, demonstrating its importance in the system of preparing Korean language teachers. The results reveal the practical aspects of improving education quality through flipped learning technology.

Keywords. Korean language teachers, reading competence, flipped learning technology, interactive learning, independent reading, educational methodology, innovative approach

Kirish. Flipped learning (teskari ta'lim) - bu an'anaviy ta'lim shaklini o'zgartirgan pedagogik yondashuvni anglatadi. Odatda, an'anaviy darslarda o'qituvchi ma'ruzalar o'qib, keyinchalik o'quvchilar uyga vazifalarni bajaradi va mashqlarni amalga oshiradi. Flipped learningda esa, o'quvchilar darsdan oldin, videolar va boshqa resurslar yordamida mustaqil ravishda o'rganishadi. Asosiy darsda esa, o'qituvchi mavzuni qisqacha umumlashtiradi va darsning asosiy qismida o'quvchilar o'zaro munozaralar, guruh ishlari yoki tushunishdagi qiyinchiliklarni hal qilish kabi faoliyatlar bilan shug'ullanadilar. Bu yondashuv dars jarayonini yanada interaktiv va o'quvchiga yo'naltirilgan qiladi.

Axborotlar tahlili va metodologiya. Flipped learning metodiga oid bu metod ustida ish olib borgan tadqiqotchilar bergan asosiy ta'riflarni quyida keltiramiz:

- ✓ O'quvchilar uyda o'zlarining o'quv tezligiga mos ravishda o'qishlarini tartibga solib, vazifalar bilan bog'liq darslarni tomosha qilishadi va darsda o'rgangan bilimlarini amaliy faoliyatlarga qo'llashadi.
- ✓ O'quvchilarga darsni videoga olib, uni uy vazifasi sifatida berishadi, asl darsda esa o'rgangan materialni tajriba asosida va amaliy o'rganish usulida o'rganishadi.
- ✓ Ta'lim texnologiyalari yordamida an'anaviy o'qitish usullarini o'zgartirib, o'quvchilarning o'rganish jarayonini yaxshilashga harakat qilinadi.

Bundan tashqari, Milman (2012) "O'quvchilar darsdan oldin onlayn video orqali tushunchalarni o'rganib, darsda faol ishtirok etishadi va hamkorlikda o'rganishni rag'batlantiradilar" deb ta'riflagan.

Yuqoridagi nuqtai nazarlar ifodalash uslubi va e'tibori jihatidan farq qilsa ham, mazmun jihatidan deyarli bir xil ma'noni anglatadi. Ya'ni, Flipped learning (teskari ta'lim) darsdan oldin o'quvchilarga shaxsiy darajalariga mos ravishda videolar va boshqa onlayn o'quv materiallarini o'rgatishdan iborat. Asosiy darsda esa o'rgangan bilimlarni amalda qo'llash, qo'shimcha va chuqurlashtirilgan o'rganishlar amalga oshiriladi. Biroq, videolar orqali oldindan o'rganish yordam berishi mumkin bo'lsa-da, bu yagona usul emas. Flipped learning — bu faqat videolar yoki oldindan o'rganish ustida to'xtalib qoladigan bir usul emas, balki o'quvchilarni o'z-o'zini o'rganishga va asosiy darsda faol ishtirok etishga undovchi metoddir. Shuning uchun, faqat oldingi bosqichga e'tibor qaratish noto'g'ri bo'ladi. Albatta, darsdan oldingi bosqich ham muhim, lekin agar o'quvchilar qanchalik yaxshi tayyorlansa ham, darsda o'rganilganlarni amalda qo'llay olmaydigan va bilimlarni chuqurlashtira olmaydigan bo'lsa, o'qish samarasi past bo'ladi. Shunday qilib, Flipped learning — bu an'anaviy ta'lim uslubiga nisbatan nafaqat oldindan o'rganish, balki o'rganishni dars faoliyati bilan bog'lashni muhimroq hisoblaydigan usuldir.

Natijalar. Flipped learning (teskari ta'lim) turli metodlarning aralashmasidan iborat bo'lib, aniq belgilangan bir modelga ega emas. Shu sababli, o'qituvchi Flipped learning darsini tuzishda asosiy

elementlar va har bir fanning o‘ziga xos xususiyatlarini birlashtirib tashkil etadi. Umuman olganda, Flipped learning darsining oqimi darsdan oldin, asosiy dars va darsdan keyin bo‘lib, uni jadval shaklida quyidagicha ifodalash mumkin.

Bosqich	Faoliyat
Darsdan oldin	O‘qituvchi: dars strategiyasi, ma’ruza mazmuni, video materiallar tayyorlash, o‘zaro muloqot maydonidan foydalanish.
	Talaba: video tomosha qilish.
Asosiy dars	Motivatsiya uyg‘otish, mini ma’ruza, savol-javob.
	Ko‘rsatilgan o‘quv faoliyatini amalga oshirish (muhokama, taqdimot, guruh/individual faoliyat), o‘zaro muloqot.
	Shakllantiruvchi baholash, fikr-mulohaza, xulosa qilish.
Darsdan keyin	Yuqori darajadagi bilimlarni qo‘llash imkoniyatini taqdim etish.
	Qo‘shimcha va chuqurlashtirilgan ta’lim.

Darsdan oldin bosqichda o‘qituvchi o‘quvchilarga o‘quv qo‘llanmalari, qo‘shimcha o‘quv materiallari, PPT materiallari va video materiallarini onlayn tarzda taqdim etadi. O‘quvchilar videolar orqali nazariy bilimlarni o‘zlari o‘rganishadi. O‘quvchilar joy va vaqtga bog‘liq bo‘lmay, video tezligini va davomiyligini o‘z darajalariga moslab sozlaydilar, shu tarzda individual o‘qish jarayonini amalga oshiradilar. Asosiy dars bosqichida o‘qituvchi onlayn video darslarini qisqacha tahlil qilib, o‘quvchilarga oddiy tarzda tushuntiradi. O‘qituvchi viktorina yoki fikr-mulohaza orqali o‘quvchilarning qanchalik tushunganini aniqlaydi va shunga asoslanib tegishli faoliyatlarni olib boradi.

Muhokama. Flipped learning (teskari ta’lim) va an’anaviy ta’limning farqlari haqida tadqiqotchilar turli xil yondashuvlarni taklif qilgan, ammo ularni ko‘rib chiqsak va tartibga solsak, quyidagicha xulosaga kelish mumkin.

Flipped learning — bu turli uslublarni o‘z ichiga olgan va darsdan oldingi hamda asosiy dars bosqichlariga e’tibor qaratadigan, o‘quvchining faol ishtirokini va tushunishni muhim deb hisoblaydigan o‘qitish metodidir. Ushbu uslubda o‘qituvchining roli an’anaviy bilim uzatishchi yoki nazorat qiluvchi ta’limotchi sifatida emas, balki o‘rganish yo‘naltiruvchisi yoki yordamchisi sifatida o‘zgaradi. Bu farqlarga asoslanib, tadqiqotchilar — I Dong Yob (2013), Bergman J. & Sams, A. (2014), I Hi Suk (2015), Em Song Won (2016) — Flipped learningning xususiyatlarini quyidagicha ifodalaydilar.

Birinchidan, Flipped learning o‘quvchilarning faol o‘rganishini rag‘batlantiradi. O‘qituvchining o‘rganish yo‘naltiruvchisi sifatidagi roli, o‘quvchilarning o‘z-o‘zini o‘rganish qobiliyatini oshiradi va ularga mustaqil ravishda bilimlarni izlashga imkon beradi. Bu o‘quvchilarni nafaqat passiv tarzda bilimlarni qabul qilishdan, balki tengdoshlari bilan o‘zaro ta’sirlar orqali o‘z fikrlarini rivojlantirishga undaydi. Natijada, ijodkorlik va fikrlash qobiliyati kuchayadi.

Ikkinchidan, Flipped learning o‘quvchilarga erkin o‘rganish imkoniyatini beradi. O‘quvchilar videolarni va boshqa o‘quv materiallarini o‘z vaqtida va qulay holatda ko‘rishlari, ularning darajasiga mos ravishda videolarni bir necha marta qayta tomosha qilish yoki tezlikni sozlash imkoniyatiga ega. Bu, o‘quvchilarga o‘z idrokini rivojlantirish va mustaqil fikrlashni rag‘batlantiradi. An’anaviy darslarda esa o‘quvchilarning fikrlashlari va idroki o‘qituvchining tushuntirishlari bilan cheklangan bo‘lib, bu ijodkorlikni cheklashi mumkin.

Uchinchidan, Flipped learning o‘quvchilar o‘rtasidagi hamkorlik va o‘zaro ta’sirni oshiradi. An’anaviy darslarda o‘quvchilar va o‘qituvchi o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir cheklangan bo‘lsa, Flipped learning guruh faoliyatlari, munozaralar kabi o‘quvchilar o‘rtasida faoliyatga asoslangan o‘rganishni rag‘batlantiradi. O‘quvchilar, o‘qituvchiga bo‘lgan hurmat va ishonch tufayli uning fikrlarini tanqid qilishda qiynalishadi, ammo tengdoshlari bilan fikr almashish orqali muhim tanqidlar va fikrlar paydo bo‘lishi mumkin. Bu o‘quvchilarning bilimlarni chuqurlashtirish, ijodkorlikni oshirish va mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

To'rtinchidan, Flipped learning o'quvchilarning idrok jarayonlarini chuqurlashtiradi. O'quvchilar avvalgi mustaqil o'rganish orqali asosiy bilimlarga oid idrokni shakllantiradi, keyinchalik dars davomida o'qituvchining tushuntirishlari va guruh faoliyatlari orqali idrokni chuqurlashtiradi. Bu jarayon darsdan keyingi topshiriqlar va amaliyotlar orqali yanada mustahkamlanadi. Shunday qilib, Flipped learning, an'anaviy darslarga nisbatan, idrok jarayonining yanada chuqurlashishiga va o'quvchilarning o'z bilimlariga nisbatan yaxshiroq tushuncha hosil qilishiga yordam beradi.

Flipped learning, o'qituvchi va o'quvchilarga samarali natijalar keltirgan bo'lsa-da, uni ta'lim jarayonida amalda tatbiq etishda ba'zi qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda. Han He Min va Kim Son A (2016), Kim Yun Yong va Jong Hyun Mi (2017), Kim Je Yol va Kim Song Jo (2017) kabi tadqiqotchilarning ishlariga asoslanib, Flipped learningni amalga oshirishda uchraydigan asosiy cheklovlar quyidagilardir.

Avvalo, bu metodga nisbatan o'quvchilarning rad etish psixologiyasi mavjud bo'lishi mumkin. Darsdan oldingi o'rganish, asosiy dars faoliyatlari va darsdan keyingi topshiriqlar o'quvchilarni ortiqcha yuklashga olib kelishi mumkin. Ba'zan, o'qish samarali o'tgandagina ham, o'quvchilar bu jarayondan qochish yoki rad etish hissini sezishlari mumkin. Ayniqsa, videolarni tomosha qilishda o'quvchilarning diqqatini saqlash juda qiyin. O'quvchilar videolarni qanday tomosha qilayotganiga qarab, o'qish samarasi sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Agar o'quvchilar qiziqishini yo'qotishsa, ularni qayta jalb etishning samarali usullari hali yetarlicha ishlab chiqilmagan. Agar o'quvchilar faqat o'quv kontentiga qiziqish bildirsa, videolarni har bir o'quvchi jiddiy tomosha qilish ehtimoli past bo'lishi mumkin. Bu holatda, majburiy ravishda oldingi o'rganish jarayoni amalga oshirilsa, Flipped learningning o'zi ma'nosiz bo'lishi mumkin. Shuning uchun o'qituvchilar o'quvchilarning qiziqishini oshirishga ko'proq e'tibor berishlari, videolarni esa qiziqarli va sodda qilishlari lozim.

Ikkinchidan, o'quvchilar asosiy dars faoliyatlarida faol ishtirok etishga tayyor bo'lmaliklari mumkin. Darslarda munozara va faoliyatlarni yoqtiradigan o'quvchilar bo'lsa-da, ba'zilar muloqot qilishni yoki fikrlarini ifoda etishni xohlamasliklari mumkin. Bu kabi o'quvchilar, asosan, darsdagi faoliyatlarda ishtirok etmasliklari va o'z fikrlarini bildirishdan qochishlari mumkin. Shuning uchun, bunday vaziyatlarda o'qituvchilar yanada qiziqarli va jalb etuvchi faoliyatlar yaratishlari va muloqot qilishdan qo'rqayotgan o'quvchilarga ko'proq rag'bat va maqtov berishlari kerak.

Uchinchidan, o'qish samarasi va o'quvchilarning qoniqish darajasi pasayishi mumkin. Flipped learningning faollikka asoslangan va o'zi o'rganishni rag'batlantiruvchi yondashuvi ba'zi foydalar keltirishi mumkin, ammo bu faqat o'zini o'zi boshqarishga qodir o'quvchilar uchun samarali bo'ladi. Passiv va o'zgarishga qodir bo'lmagan o'quvchilarda esa, bilish qiziqishi yo'qolishi, o'rganish jarayoni esa noaniqlikka olib kelishi mumkin. Shuning uchun, Flipped learningni qo'llashda o'qituvchilar o'quvchilarning o'rganish odatlarini va holatini hisobga olishlari, passiv o'quvchilarga esa ko'proq e'tibor qaratishlari kerak.

Xulosa. Bo'lajak koreys tili o'qituvchilarining o'qish kompetensiyasini rivojlantirishda Flipped learning texnologiyasi samarali pedagogik yondashuv ekanligi aniqlandi. Ushbu texnologiya talabalarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirish va dars davomida chuqurroq o'rganishni ta'minlash imkonini beradi. Tadqiqot davomida Flipped learning texnologiyasidan foydalanish o'quv jarayonida interfaollikni oshirishi va bilimlarni amaliy qo'llashga yordam berishi isbotlandi. Mazkur metodologiya koreys tili o'qituvchilarining nafaqat o'qish kompetensiyasini, balki boshqa pedagogik ko'nikmalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, Flipped learning texnologiyasi ta'lim sifatini oshirishda muhim vosita sifatida tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Ash, K. (2012) Educators View "Flipped Model" With a More Critical Eye. Education Week, pS6-S7.
2. Bergmann, J.·Sams, A.(2014). FLIPPED LEARNING: Maximizing Face Time, T+D, Vol.68, No.2, pp.28-31.

3. Kamarova M.U. Koreys tili ta'limining asosiy mazmuni va o'quv jarayonini samarali tashkil qilish asoslari. "Yangi Rennessans" xalqaro ijtimoiy va gumanitar fanlar ilmiy-nazariy jurnali 01/2024.
4. Kamarova M.U. Использование метода «перевернутого обучения» в процессе начального обучения корейскому языку. SamDChTI, "Zamonaviy tilshunoslik va derivatsion qonuniyatlar", 16-oktabr, 2024.
5. Kwon OY. Flipped learning: an alternative pedagogical approach in the untact age. J Exerc Rehabil. 2021 Aug 23;17(4):222-225. doi: 10.12965/jer.2142296.148. PMID: 34527632; PMCID: PMC8413914.
6. Jeff (2011) Rotellar C, Cain J. Research, Perspectives, and Recommendations on Implementing the Flipped Classroom. Am J Pharm Educ. 2016 Mar 25;80(2):34. doi: 10.5688/ajpe80234. PMID: 27073287; PMCID: PMC4827585.
7. Son Song Hi (2018). **한국어교육과정론 (Koreys tilini o'qitish dasturi nazariyasi), Koreys tili o'qitish metodikasi amaliyoti, Yonsei nashriyoti, 1-5.**
8. Cho Hyon Son (2018). 한국어 교수 설계 (Koreys tilini oqitishni loyihalash), **Koreys tili o'qitish metodikasi amaliyoti, Yonsei nashriyoti, 31**
9. 이희숙, 김창석, 허서정(2015). 전통적 수업과 플립러닝 수업의 언어 상호작용 비교 분석. 정보교육학회논문지, 19.1: 113-126.
10. 전수정(2004). 연구 논문 : 학문 목적 읽기 교육을 위한 한국어 학습자의 요구 분석 연구. 외국어로서의 한국어교육, 29.-: 203-230.

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 5 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 7, НОМЕР 5

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 7, ISSUE 5

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000